



FOYDALANUVCHI KELISHUVI

Mazkur Foydalanuvchi kelishuvi “Una Moliya – kartaga qarz” mobil ilovasidan (bundan buyon matnda Mobil ilova deb yuritiladi), shuningdek “UNA MOLIYA” MMT MCHJ QK (bundan buyon Huquq egasi deb yuritiladi)ga tegishli bo‘lgan va Foydalanuvchilarga taklif etilishi hamda taqdim etilishi mumkin bo‘lgan boshqa resurslar va xizmatlardan foydalanishning umumiy shartlari va qoidalarini belgilaydi.

Mobil ilovani ko‘rish va undan foydalanishni boshlashdan oldin Foydalanuvchi mazkur Foydalanuvchi kelishuvi matnini diqqat bilan o‘qib chiqishi shart.

Foydalanuvchi Mobil ilovada tegishli ro‘yxatdan o‘tish tartib-taomilidan o‘tish orqali mazkur Foydalanuvchi kelishuvi matnini diqqat bilan o‘qib chiqqanligini, uning mazmun-mohiyati o‘ziga tushunarli ekanligini hamda ushbu Foydalanuvchi kelishuvining barcha qoidalariga so‘zsiz rozilik bildirishi va uning barcha shartlarini qabul qilishini tasdiqlaydi.

Agar Foydalanuvchiga mazkur Foydalanuvchi kelishuvi qoidalar (yoki ularning bir qismi) tushunarsiz bo‘lsa va/yoki u ushbu Foydalanuvchi kelishuvi shartlarini qabul qilmasa, Foydalanuvchi Mobil ilovadan foydalanishni to‘xtatishi shart.

1. ATAMALAR VA TA’RIFLAR

- 1.1. **Huquq egasi** - “UNA MOLIYA” MMT MCHJ QK (STIR: 311431122).
- 1.2. **Foydalanuvchi** - Mobil ilovani o‘z qurilmasiga o‘rnatgan jismoniy shaxs.
- 1.3. **Mobil ilova** – Android va IOS platformalarida ishlovchi smartfonlar, planshetlar va boshqa mobil qurilmalar uchun mo‘ljallangan “Una Moliya – kartaga qarz” mobil ilovasi bo‘lib, unga bo‘lgan mutlaq huquq Huquq egasiga tegishlidir. Mobil ilova Foydalanuvchiga mikromoliyaviy xizmatlarni olish imkoniyatini yaratish uchun mo‘ljallangan.
- 1.4. **Qurilma** - Mobil ilova o‘rnatilgan va Internet tarmog‘iga ulanish imkoniyatiga ega mobil texnik qurilma.

2. UMUMIY QOIDALAR

- 2.1. Mobil ilovadan foydalanar ekan, Foydalanuvchi mazkur Foydalanuvchi kelishuvi qoidalariga rioya etilishi uchun, shuningdek ro‘yxatdan o‘tish tartib-taomilidan belgilangan tartibda o‘tish orqali foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lgan tegishli hisob qaydnomasi (shaxsiy kabinet) orqali Mobil ilovadan amalga oshirilgan har qanday foydalanish uchun to‘liq javobgar hisoblanadi.
- 2.2. Mobil ilovadan foydalanish jarayonida Foydalanuvchi faqat haqiqiy, aniq, dolzarb va to‘liq ma’lumotlarni taqdim etishga rozilik beradi va buni kafolatlaydi.
- 2.3. Foydalanuvchiga Mobil ilovadan faqat shaxsiy va notijorat maqsadlarda foydalanish huquqi beriladi. Bunda Foydalanuvchi Mobil ilovadan faqat mazkur Foydalanuvchi kelishuvi shartlariga muvofiq foydalanishi mumkin.

3. FOYDALANUVCHI KELISHUVINING PREDMETI

- 3.1. Mazkur Foydalanuvchi kelishuvining predmeti Mobil ilovadan foydalanishda Huquq egasi va Foydalanuvchilar o‘rtasidagi munosabatlarning umumiy qoidalar va shartlarini belgilashdan iborat. Mazkur Foydalanuvchi kelishuvi O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367 va 370-moddalariga muvofiq jismoniy shaxslarga qaratilgan ommaviy oferta hisoblanadi hamda ushbu Foydalanuvchi kelishuvi shartlari asosida tuziladi.
- 3.2. Huquq egasi Foydalanuvchiga O‘zbekiston Respublikasi hududida Mobil ilovadan bepul foydalanish uchun mutlaq bo‘lmagan va boshqa shaxsga o‘tkazilmaydigan litsenziya (bundan buyon matnda Litsenziya deb yuritiladi) beradi.

3.3. Litsenziya Mobil ilovadan Mobil ilovani Qurilma xotirasiga nusxalash va o'rnatish, Mobil ilovani Qurilmada qayta ishlatish (ishga tushirish), Mobil ilovadan uning bevosita funksional maqsadiga muvofiq va mazkur Foydalanuvchi kelishuvida belgilangan maqsadlarda foydalanish huquqlarini beradi.

3.4. Litsenziyaning amal qilish muddati Foydalanuvchi Mobil ilovadan foydalanishni boshlagan va Litsenziya shartlarini qabul qilgan kundan boshlab, Mobil ilova Qurilmadan o'chirib tashlangan vaqtgacha davom etadi.

3.5. Huquq egasi Mobil ilovani takomillashtirish, o'zgartirish, ayrim funksiyalar va imkoniyatlarni joriy etish yoki olib tashlash huquqiga ega. Shu munosabat bilan mazkur Foydalanuvchi kelishuvi Huquq egasi tomonidan bir tomonlama tartibda o'zgartirilishi va/yoki to'ldirilishi mumkin. Foydalanuvchi Mobil ilovadan mazkur Foydalanuvchi kelishuviga o'zgartirishlar va/yoki qo'shimchalar kiritilgandan keyin ham foydalanishni davom ettirishi uning ushbu o'zgartirishlar va/yoki qo'shimchalarga roziligini anglatadi. Agar Foydalanuvchi mazkur hujjatlarning biror-bir qoidasi bilan rozi bo'lmasa, u Mobil ilovadan foydalanishga haqli emas.

3.6. Mazkur Foydalanuvchi kelishuvi shartlarini qabul qilish orqali Foydalanuvchi Mobil ilova va uning Servislari faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni olishga rozilik bildiradi, shu jumladan elektron pochta manziliga yoki telefon raqamiga reklama, axborot va boshqa xabarlarini qabul qilishga, shuningdek Mobil ilovaning o'zida tegishli ma'lumotlarni olishga rozilik beradi.

4. FOYDALANUVCHILARNI RO'YXATDAN O'TKAZISH

4.1. Mobil ilovaning imkoniyatlari (funksionali)dan foydalanish huquqiga ega bo'lish uchun Foydalanuvchi tegishli ro'yxatdan o'tish tartib-taomilidan o'tishi lozim.

4.2. Mazkur Foydalanuvchi kelishuviga muvofiq Mobil ilovani faollashtirish (bundan buyon matnda Ro'yxatdan o'tish deb yuritiladi) va undan keyinchalik foydalanish Foydalanuvchining ushbu Foydalanuvchi kelishuvi barcha shartlariga roziligini tasdiqlaydi.

4.3. Foydalanuvchini Mobil ilovada ro'yxatdan o'tkazish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- mobil ilovani o'rnatish va ishga tushirish;
- mobil telefon raqamini kiritish;
- telefon raqamini bir martalik tasdiqlash kodi orqali tasdiqlash;
- zarur shaxsiy ma'lumotlarni kiritish;
- Huquq egasi talablariga muvofiq identifikatsiyadan o'tish;
- shaxsiy kabinetni (hisob qaydnomasini) yaratish va Mobil ilova funksionalidan foydalanish imkoniyatini olish.

4.4. Mobil ilova Foydalanuvchilarga mobil telefon yoki boshqa portativ telekommunikatsiya qurilmalaridan foydalangan holda quyidagi elektron operatsiyalarni amalga oshirish imkonini beradi:

- mikroqarz olish uchun ariza topshirish;
- zarur hujjatlarni yuklash va qayta ishlash;
- foydalanuvchini identifikatsiyadan o'tkazish;
- ariza holati to'g'risida ma'lumot olish;
- mikroqarzlarni olish va qaytarish;
- operatsiyalar va shartnomalar tarixini ko'rish;
- qo'llab-quvvatlash xizmati bilan aloqa qilish.

Foydalanuvchi va Huquq egasi o'rtasidagi mikroqarz olish, shuningdek mikroqarzni berish va qaytarish bilan bog'liq boshqa munosabatlar alohida tuziladigan qarz shartnomasi bilan belgilanadi va tartibga solinadi.

4.5. Foydalanuvchi o'z hisob qaydnomasi, unda saqlanadigan har qanday ma'lumotlar, shu jumladan moliyaviy va shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash hamda hisob qaydnomasi parolini saqlash uchun javobgardir. Agar Foydalanuvchi paroli yoki xavfsizlikka oid boshqa ma'lumotlar buzilgan deb hisoblasa, bu haqda darhol Huquq egasini xabardor qilishi shart.

4.6. Huquq egasi zarurat tug'ilganda Foydalanuvchidan parolini o'zgartirishni (yangilashni) talab qilish yoki uning Mobil ilovadagi hisob qaydnomasiga kirishini cheklash huquqini o'zida saqlab qoladi.

4.7. Foydalanuvchi o'z parolini uchinchi shaxslarga berishga haqli emas va uni saqlash uchun to'liq javobgar hisoblanadi hamda saqlash usulini mustaqil ravishda tanlaydi. Agar Foydalanuvchi boshqacha holatni isbotlay olmasa, uning parolidan foydalangan holda amalga oshirilgan barcha harakatlar Foydalanuvchining o'zi tomonidan amalga oshirilgan deb hisoblanadi va barcha huquqiy oqibatlar unga nisbatan tatbiq etiladi.

5. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

5.1. *Huquq egasi quyidagilarga majbur:*

5.1.1. Mobil ilovaning uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun barcha zarur choralarni ko'rish.

5.1.2. Mobil ilovadagi barcha ma'lumotlarni, shu jumladan shaxsiy ma'lumotlarni o'z vaqtida qayta ishlashni ta'minlash.

5.1.3. Axborot xavfsizligini ta'minlash, Foydalanuvchining Mobil ilovadagi hisob qaydnomasiga ruxsatsiz kirishga urinishlarning oldini olish bo'yicha zarur tadbirlarni amalga oshirish.

5.2. *Huquq egasi quyidagi huquqlarga ega:*

5.2.1. Mobil ilovaning imkoniyatlari (funktionali)ni o'zgartirish.

5.2.2. Nosozliklar, xatolar va texnik uzilishlar aniqlanganda, shuningdek profilaktik ishlarni amalga oshirish va Foydalanuvchining hisob qaydnomasiga ruxsatsiz kirish holatlarining oldini olish maqsadida Mobil ilova faoliyatini bir tomonlama tartibda vaqtincha to'xtatib turish.

5.2.3. O'z huquq va majburiyatlarini Foydalanuvchi bilan kelishmasdan bir tomonlama tartibda boshqa shaxsga o'tkazish.

5.2.4. Elektron hujjatlar, xabarlar va boshqa har qanday ma'lumotlarni, shu jumladan shaxsiy ma'lumotlarni saqlash maqsadida ularni axborot vositachilariga saqlash uchun topshirish.

5.2.5. Mobil ilovada ro'yxatdan o'tishda ko'rsatilgan Foydalanuvchining hisob qaydnomasiga yoki telefon raqamiga SMS-xabarnoma shaklida xabarlar va bildirishnomalar yuborish.

5.2.6. Quyidagi hollarda Foydalanuvchining hisob qaydnomasiga kirishni bloklash:

a) Mobil ilova dasturiy ta'minotining istalgan qismiga ruxsatsiz o'zgartirishlar kiritilganligi (yoki kiritishga urinishlar aniqlanganligi);

b) Foydalanuvchi mazkur Foydalanuvchi kelishuvi va tomonlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi hamda/yoki Mobil ilovadan foydalanish bilan bog'liq boshqa hujjatlar talablarini buzganligi;

v) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa hollarda.

5.3. *Foydalanuvchi quyidagilarga majbur:*

5.3.1. Hisob qaydnomasiga oid identifikatsiya ma'lumotlarini uchinchi shaxslarga bermaslik.

5.3.2. O'z mobil qurilmasining saqlanishini ta'minlash uchun barcha zarur choralarni ko'rish hamda uchinchi shaxslar uning mobil qurilmasidan foydalangan taqdirda shaxsan javobgar bo'lish.

5.3.3. Mobil ilovadan foydalanishni ta'minlaydigan shaxsiy kompyuteri va boshqa qurilmalarining ishlash qobiliyati, axborot himoyasi va xavfsizligini ta'minlash.

5.3.4. Mobil ilovaga kiritilayotgan har qanday ma'lumotlarning to'g'riligi va ishonchliligini sinchkovlik bilan tekshirish.

5.3.5. Mobil ilovadan noqonuniy maqsadlarda yoki uchinchi shaxslarning huquqlarini buzuvchi tarzda foydalanmaslik.

5.3.6. Huquq egasi tomonidan Mobil ilovada ro'yxatdan o'tishda ko'rsatilgan hisob qaydnomaga yoki telefon raqamiga SMS-xabarnoma shaklida yuborilgan xabarlar va bildirishnomalarni kuzatib borish hamda nazorat qilish.

5.4. *Foydalanuvchi quyidagi huquqlarga ega:*

5.4.1. Mobil ilovadan foydalanish masalalari bo'yicha maslahat olish uchun Huquq egasiga murojaat qilish.

6. QO'SHIMCHA SHARTLAR

6.1. Mobil ilovaning ishlash sifati, barqarorligi va samaradorligini yaxshilash maqsadida Huquq egasi Foydalanuvchining Mobil ilovadan foydalanishiga oid statistik ma'lumotlarni yig'ish, saqlash va qayta ishlash, Foydalanuvchining Mobil ilovadagi harakatlarini qayd etish hamda olingan ma'lumotlarni mustaqil ravishda yoki uchinchi shaxslarni jalb qilgan holda qayta ishlash huquqiga ega.

6.2. Mazkur Foydalanuvchi kelishuvi shartlari Mobil ilovaning har qanday yangilanishlari, yangi versiyalari va qo'shimchalariga ham tatbiq etiladi, bundan mazkur yangilanish yoki yangi versiya uchun alohida litsenziya shartnomasi ilova qilingan hollar mustasno.

6.3. Mobil ilovaning yangilanishi, yangi versiyasi yoki qo'shimchasini o'rnatishga rozilik bildirgan holda, Foydalanuvchi ushbu yangilanishlar, yangi versiyalar va qo'shimchalar uchun ham mazkur

Foydalanuvchi kelishuvi shartlarini qabul qiladi, agar Mobil ilovaning yangilanishi yoki yangi versiyasini o'rnatish boshqa litsenziya shartnomasi bilan birga taqdim etilmagan bo'lsa.

7. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

7.1. Foydalanuvchi mazkur Foydalanuvchi kelishuvi bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladi.

7.2. Foydalanuvchining Mobil ilovadagi hisob qaydnomasiga kirish huquqi to'xtatilgan taqdirda, Huquq egasi Foydalanuvchini kirish huquqidan mahrum etilganligi haqida xabardor qilish yoki qilmaslik, shuningdek bunday xabardor qilish yoki uning mavjud emasligi oqibatida yuzaga kelgan har qanday oqibatlar uchun javobgar bo'lmaydi.

7.3. Huquq egasi Mobil ilovadan foydalanish natijasida Foydalanuvchiga yetkazilgan bilvosita zararlar yoki boy berilgan foyda uchun javobgar bo'lmaydi.

7.4. Huquq egasi Mobil ilovaning ishlashini ta'minlovchi dasturiy-apparat majmuasidagi nosozliklar, xatolar va uzilishlar, shuningdek Huquq egasiga bog'liq bo'lmagan sabablar tufayli Foydalanuvchining Mobil ilova yoki uning hisob qaydnomasidan vaqtincha foydalana olmasligi hamda buning natijasida yuzaga kelgan zararlar uchun javobgar bo'lmaydi.

7.5. Huquq egasi quyidagi holatlar natijasida Foydalanuvchiga yetkazilgan zararlar uchun javobgar emas:

- a) Foydalanuvchi Mobil ilova va o'z hisob qaydnomasiga kirish uchun foydalanadigan uskunalar va dasturiy ta'minotda viruslar yoki boshqa zararli dasturlarning mavjudligi;
- b) Mobil ilovada Foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlari va rekvizitlarini, shuningdek majburiy to'ldirilishi lozim bo'lgan maydonlarni noto'g'ri to'ldirishi;
- v) uchinchi shaxslarning noqonuniy harakatlari, shu jumladan Foydalanuvchining identifikatsiya ma'lumotlaridan foydalanish bilan bog'liq harakatlari.

8. FORS-MAJOR

8.1. Tomonlar mazkur Foydalanuvchi kelishuvi bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgar bo'lmaydi, agar bunday bajarmaslik tomonlarga bog'liq bo'lmagan yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari natijasida yuzaga kelgan bo'lsa. Bunday holatlarga, jumladan tabiiy ofatlar, yong'inlar, ommaviy tartibsizliklar, inqiloblar, harbiy harakatlar, karantin e'lon qilinishi, yoki yuqorida ko'rsatilgan holatlar ta'siri ostida deb rasman e'tirof etilgan hududlarda yuz bergan boshqa favqulodda hodisalar kiradi.

9. YAKUNIY QOIDALAR

9.1. Mazkur Foydalanuvchi kelishuvida tartibga solinmagan masalalar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tartibga solinadi.

9.2. Huquq egasi tomonidan mazkur Foydalanuvchi kelishuvida nazarda tutilgan yoki qonunga muvofiq unga tegishli bo'lgan biror-bir huquq yoki huquqiy himoya vositasidan foydalanmaslik yoki uni qo'llamaslik, Huquq egasining ushbu huquq va/yoki huquqiy himoya vositasidan voz kechganligini anglatmaydi.

9.3. Mazkur Foydalanuvchi kelishuvidagi paragraflar, boblar va bo'limlar nomlari faqat ma'lumot berish maqsadida keltirilgan bo'lib, ular mazkur Foydalanuvchi kelishuvining biror-bir sharti yoki qoidasi mazmuni va talqiniga ta'sir ko'rsatmaydi.

9.4. Agar mazkur Foydalanuvchi kelishuvining biror-bir sharti yoki qoidasi haqiqiy emas yoki ijro etib bo'lmaydigan deb yakuniy ravishda topilsa, a) mazkur Foydalanuvchi kelishuvining qolgan barcha shartlari va qoidalari o'z kuchida qoladi va o'zgarishsiz amal qiladi, b) haqiqiy emas yoki ijro etib bo'lmaydigan shartlar yoxud qoidalar ularning maqsad va mazmuniga imkon qadar yaqin bo'lgan, amaldagi va ijro etilishi mumkin bo'lgan shartlar yoki qoidalar bilan almashtiriladi.